

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-4/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир хайати:**

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмудовна, б.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нағмет Қаллиев, и.ф.д., акад.
Аметов Яқуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.
Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арпбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Қаландаров Назимжон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Каримов Улғабек Темирбаевич, DSc
Қурбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.
Қурбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
Қутлиев Учқун Отабаевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.
Пазиллов Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуратович, б.ф.д., проф.
Раҳимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Рўзметов Дилишод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилов, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
Сирожов Ойбек Очилов, с.ф.д., проф.
Собитов Ўлмасбой Тожаҳмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Тожибаев Қомилжон Шаробитдинов, б.ф.д., акад.
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.
Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/3 (113), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 256 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

Bekjanova S. Tibbiyot oliy talim muassasalari talabalarida divergent tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	143
Bolbekov E.A. Talabalarining sog'lom turmush tarzi mazmunini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish	145
Bolieva R.Kh. Study of the characteristics of changes in the mental states of students during the session	148
Davletov R.M. Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini dasturlashga oid kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati	151
Djumanioyova E.Q. Formation of students' communication skills in english lessons	154
Eshkobilova F.U. Ingliz va o'zbek bolalarining o'xshash yoki noo'xshash motivli hamda obrazli o'yinlari	157
Jabborov Sh.U. Cognitive linguistic approaches to second language acquisition: insights and applications	160
Jamolova Z., O'rinboyeva X.M. Maktablarda vazifaga asoslangan ta'lim (TBLT) orqali tillarni o'qitish	163
Jo'rayeva M.R. Kompetensiya, kommunikativ kompetensiya atamalarining ifodalanishi	165
Kazakova D.G. Influence of learning styles on education	169
Kuttibekova G.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga tayyorlash	172
Kuzibayeva M.M. Talabalarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash usullari tajribasidan	174
Kuzibayeva M.M. Oliy ta'limda talaba-yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish	177
Masharipova B.E. Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarni innovatsion qisqa muddatli kurslar orqali o'qitishning dolzarbligi	179
Maxammadiyev A.Sh., Abramotov M.B. "Ekotizim va ularning tasniflanishi" mavzusini o'qitishning interfaol usullari	183
Maxmutaliyeva M. Syllabus designing for ESP students	186
Melikuzieva G. Principles of materials development in English language teaching	189
Meyliyeva Sh.E. Using shadowing effectively to improve learners' listening comprehension in EFL classroom	191
Muratova N.B. The role of reading skills in the development of critical thinking	194
Nabieva Kh.A. Teaching english for children with special educational needs	197
Namazova M.U. "Insoniy fazilatlar hayotimiz ko'rki" mavzusida insho, matn yozish asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish masalalari	200
Niyazova M.Kh., Tuxtayeva M.A. Said Ahmadning asarlarida frazeologik birliklar tahlili	202
Norqulov B.X. Chet tili o'qitish metodikasining yaqin fanlar bilan bog'liqligi va uning asosi	205
Oblaqulova D.J., Ibragimov N.T. Main difficulties of learning English grammar	207
Qodirova D. Ijodiy yondashuv asosida talabalarining fransuz tilida nutqini shakllantirishning zamonaviy tendensiyalari	210
Rahmatova Z.M. Xorijiy talabalar uchun o'zbek tili darslarida o'yin texnologiyalarining ahamiyati	213
Raximova S.Dj. Iboralarni o'qitishda innovatsion yondashuv	215
Sagdiyeva G.J. Pragmatic aspects of english teaching and learning	217
Sharapova G.Sh., Rasulova M.I. Learning styles and experiential learning theory	220
Tairov I.Yo. Jamiyat ma'naviy yangilanishida milliy – ma'naviy meros modernizatsiyasi	223
Turg'unova R.P. Prospects for the development of leading higher education institutions: gender perspective	225
Tursunxodjayev J.J. Non-traditional ways of teaching vocabulary in foreign language lessons	228
Umarova G.A. Filologik yo'nalishdagi talabalarga jarayonli yozishni o'rgatish va yozishga doir vazifalar	231
Xalilova S.Z. Teaching methods and techniques for building a strong vocabulary in adult English as a Foreign Language (EFL) learners	233
Xusanova M.A., Ahmadjonova F.A. Boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xosligi	236
Xushvaqtova E., Hamdamova Ch. Oliy ta'lim muassasalarida xitoy tilini o'qitishning dolzarb metodlari	239
Yoqubova N.N. Improving the quality of the lesson in higher education and the role of its professor-teachers	242
Дадахонова З.М. Современные технологии контроля знаний учащихся	245
Ниязова Х.Х. Время, как ценность в пословицах и поговорках при обучении начальных классов	247
Сафарова З.Т. Жисмоний тарбия дарсида халқ ҳаракатли ўйинларини қўллаш ва фанлараро боғлиқликнинг физиологик афзалликлари	249
Холматова Д.А. К вопросам изучения русского языка	253

**“INSONIY FAZILATLAR HAYOTIMIZ KO'RKI” MAVZUSIDA INSHO, MATN YOZISH
ASOSIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI O'STIRISH
MASALALARI**

M.U.Namazova, PhD, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarga “Insoniy fazilatlar hayotimiz ko'rki” mavzu bo'yicha insho, esse hamda matn yaratish, mavzuga ijodiy yondashish to'g'risida shu bilan bir qatorda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish masalasida to'g'ri yo'nalish berilgan.

Kalit so'zlar: esse, pedagog, yozma, og'zaki, ijodiy, bayon, fikr, muallif

Аннотация. В статье рассказывается студентам о создании сочинения, эссе и текста на тему «Человеческие качества – наша жизнь», а также о развитии устной и письменной речи студентов при задании правильного направления.

Ключевые слова: эссе, педагог, письменное, устное, творческое, высказывание, мнение, автор.

Abstract. The article tells students about creating an essay, essay and text on the topic "Human qualities are our life", as well as about developing students' oral and written speech. given the right direction.

Keywords: essay, pedagogue, written, oral, creative, statement, opinion, author

Kirish. Berilgan mavzuda matn yozishdan oldin albatta o'quvchi mavzu nomiga, ma'nosiga e'tibor qaratishi lozim. Inson fikrini bayon qilishining ikki turi mavjud: og'zaki va yozma. Fikrlarni satrlar orqali ifoda etish asnosida yuzaga chiquvchi nutq turli xil yozma ishlarga material to'plab yozish, ijodiy yondashish asosida takomillashadi. O'quvchi yozadigan yozma ish(insho) turli mavzulardan iborat bo'lishi mumkin. Insonni inson qiluvchi asos insoniylik va unga dahldor fazilatlar to'g'risida yozilajak yozma ish o'quvchining yozma nutqini o'stirish bilan namoyon bo'libgina qolmay, unda:

- yaxshi bilan yomonga baho bera olish;
- ijobiylik va salbiylik o'rtasidagi azaliy kurashni tasvirlay olish;
- mavzuga ijodiy yondashish;
- muammolarga befarq bo'lmaslik;
- insonni qadrlay olish;
- yaxshilikka intilish;
- o'z-o'ziga zimdan baho berish;
- xulosa chiqara olish kabi xususiyatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Yozma ish yozayotgan inson ijodkor hisoblanadi. Fikrlarini jamlab yangi matn yaratish uchun avvalo, ko'p kitob mutolaa qilgan dunyoqarashi keng, fikrlash qobiliyati tez bo'lgan ijodkorning yozma ishi talab darajasida chiqadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Berilgan fikr va mulohazalardan shunday xulosalarga kelishimiz mumkinki, “so'nggi paytlarda esse atamasi faol iste'molga kirdi. Endi uni yozuvchi yoki publitsistlar emas, o'qituvchilar va o'quvchilar ham tez-tez qo'llay boshladi. Bu G'arb ta'limiga xos bo'lgan esse yozish an'anasining kirib kelgani va ommalashgani bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlar oliy o'quv yurtlarida o'qishga kirish uchun yoki IELTS kabi til bilish salohiyatini baholovchi imtihonlarda esse yozish topshiriqlari beriladi. Bu shakldagi sinov mashqlari O'zbekistonda ham ommalashyapti” [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning maqsadidan kelib chiqib, ishda tahliliy, tarixiy-tipologik, publitsistik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'quvchi o'zi anglab yetgan voqea-hodisalarni ijobiy va salbiyga ajratish asnosida unga mos reja tuzib, yozma ish uchun material to'plash va shu to'plangan material yordamida matn, taassurot,tavsifiy yozma ish, insho kabilarni yozishi mumkin bo'ladi. O'quvchi manbani izlashi shart emas. Axir buyuk bobokalonlarimiz A.Navoiy, Z.M.Bobur, B.Mashrablarning mumtoz asarlari, Ahmad Yassaviy hikmatlari, A.Qahhor, Abdulla Qodiriy, Odil Yoqubov, Said

Ahmad asarlari, zamondoshlarimiz Erkin Vohidov, O'tkir Hoshinovlarning bebaho asarlarida insoniylik fazilatlarini yorqin satrlarda aks etgan. Yuqorida nomlari zikr etilgan yozuvchi, shoirlarning ijodidan o'quvchi bu mavzuni yoritishda istagancha misollar topib qo'llashi va ulardan ibrat olishi mumkin.

Insonni inson sifatida namoyon etuvchi ijobiy fazilatlar xususida yozma ishlar oldidan o'quvchilar o'rtasida suhbat o'tkazilishi lozim. Bu suhbatlar noan'anaviy, asosda tashkil etilib, uni interaktiv metodlarning turli ko'rinishlari yordamida olib borilishi o'ylangan rejaning yaxshi samara berishiga zamin yaratadi. "Esse – erkin kompozitsiyali nasriy adabiy janr. U adabiy, falsafiy, ijtimoiy, publitsistik va boshqa mavzularda yoziladi, muammolar tizimli, ilmiy tarzda emas, balki erkin shaklda talqin qilinadi.



O'zbek adabiyotida esse janrida samarali ijod qilgan adiblardan biri Shukur Xolmirzayev bu janrni "yozuvchiga behad keng erkinliklar beradi" deya maqtaydi. O'qituvchi va o'quvchilardan talab qilinadigan esselar adabiyotdagi essedan farq qiladi. Biroq ularning umumiy jihatlari ham bor. Har ikkisi ham muallifning fikri, munosabati, qarashlari, taassurotlari yetakchi xususiyatdir. Xo'sh, u biz o'rgangan inshodan nimasi bilan farq qiladi? Inshoda so'z boyligi, badiiy til vositalaridan keng foydalanish muhim sanaladi. Ta'lim esselarida esa ko'pincha biror muammoli mavzuga munosabat bildirish, unga yechimlar taklif qilish so'raladi. Bunda o'quvchi fakt va ma'lumotlardan, iqtiboslardan ham o'rinli foydalanishi, hayotiy misollar keltirishi zarur. Esse inshoga nisbatan hajman kichik. Unga reja tuzish ham talab etilmaydi. Inshodan o'quvchining fikrini yozma shaklda va badiiy tarzda ifodalash qobiliyatini oshirish ko'zda tutilsa, esse fikrlash, fikrni dalillash va munosabatni bayon eta olishni shakllantirishga xizmat qiladi"[2]. Deylik, yozma ishga manba to'plash uchun quyidagi topshiriqlar avvaldan berilgan: insoniy fazilatlar haqida so'z va birikmalar tuzish, insoniy fazilatlarini ulug'lab, salbiy xislatlarni qoralovchi hikoyalarni epizodlar yozib kelish. Bu kabi topshiriqlar o'quvchining har ikki- yozma va og'zaki nutqining rivojlanishiga katta yordam beradi. Shu bilan birga o'quvchi tomonidan tuzilajak jumalarning mazmundor, ta'sirchan, xuddi notiqning nutqi singari jozibali ko'rinish kasb etishi uchun imkoniyat yaratadi. Zero, inson tili, aql-zakovati bilan jamiki jonzodlar orasida oliy o'rinni egallaydi.

"Essening turiga qarab unga sarflanadigan vaqt ham turlicha bo'ladi. Essening mulohazali, tavsiflovchi, umumlashtiruvchi, dalilli kabi turlari bor. Masalan, mulohazali yoki tavsiflovchi esseda vaqtni asosan yozishga sarflasangiz, dalilli esseda fakt va ma'lumotlarni izlash, qayta ishlashga ham yetarlicha vaqt ajratishingiz kerak. O'quvchi, talaba, ishga kiruvchi nomzod, o'qituvchi yoki boshqa mutaxassislariga mo'ljallanganiga qarab essening hajmi farq qiladi. Maktab o'quvchilari odatda 200–300 so'zli esse yozadi. Har qanday essenini yozish uchun ma'lum bir bilim, ko'nikma va hayotiy tajribaga ega bo'lish zarur. Aks holda, yozganlaringiz bo'sh chiqadi. Esse yozish jarayoni ko'pincha quyidagicha kechadi: muammo yoki mavzuni aniqlash – mavzu haqida fikrlash – rejalashtirish – yozish – tekshirish – tuzatishlar va to'ldirishlar kiritish. Mavzuni qanday yoritishingizga qarab reja tuzasiz. Mavzuning mohiyati nimada, uni nimalar orqali ochib berish va asoslantirish mumkin, qanaqa dalillar va faktlardan foydalaniladi, oxirida qanday xulosaga kelinadi? Rejani o'zingiz uchun belgilab olasiz, u inshodagi kabi matn boshida keltirilmaydi. Lekin nima deyishingiz, nimalarga urg'u qaratishingiz, xulosangiz oldindan aniq bo'lishi kerak"[3].

- Yaxshi so'zlay olish(nutq)-san'atdir.
- Uni egallashga intilgan;

- Erdin so'z unar, enchi bo'z hunar.

Agar shu egallangan san'at-yaxshi so'zlash orqali kimlargadir ijobiy ta'sir eta olsak, shu ruhda yosh avlodni tarbiyalay olsak, albatta, bu nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Esse yozish uchun avvalo mavzuni keng o'rganish lozim. Berilayotgan muammoning mohiyatini tushuntirib unga kerakli misollar, dalillar keltirish maqsadga muvofiq. Esse yozish davomida yozayotgan uslub hamda individuallik masalasiga alohida ahamiyat berish zarur. Shu o'rinda pedagoglarga quyidagilarni tavsiya etaman:

- ham ma'nan, mazmunan mos keluvchi manbalarni o'quvchiga jamlatish.
- yozma ishlarning ixcham mazmunli kasb etishini ta'minlash;
- mavzuga ijodiylik ruhini singdirishga o'rgatish;
- yozma ishlarda sitatalardan, maqol, hikmatli so'zlar, hodisalardan o'rinli foydalanishga

o'rgatish.

- husnixatning savodxonligi hamda chiroyliligini ta'minlash.

Mavzuga doir bo'lgan esse yozishda bilim, tajriba, so'z boyligi, ifoda qobiliyati hamda muammoga to'g'ri yechim bera olish qobiliyati juda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan amallarga rioya qilinganda biz tarbiya qiladigan yosh avlod so'zlamol, savodxon hamda kamol topgan inson bo'lib yetishmog'iga hech qanday shubha yo'q. Zero, hozirgi davr zamonaviy pedagoglari oldida turgan asosiy vazifa ham shundan iboratdir.

Xulosa. Insoniylik fazilatlarini sanasa soni ko'p ularni o'z o'rnida va o'zbekona chiroy bilan bajarilsa hamisha insoniyat rivojlanadi shu bilan bir qatorda insonlardan ezgu amal, ezgu so'z kabi jihatlari avlodlarga meros qoladi.

“Esse esa erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatdan ixcham nasriy asar bo'lib, badiiy-publitsistik janrning kichik bir turi. Inshodan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchining yozma nutqini rivojlantirish. Essening maqsadi - o'quvchini faol va tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish, o'z mulohazalarini dalillashga yo'naltirish, til unsurlaridan o'rinli foydalanish orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish ko'nikmalarini shakllantirish. Esse yozish o'quvchilarga o'z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma'lumotni to'g'ri qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o'z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Asosiysi, keltirilgan fakt va dalillarning o'rinli qo'llanishidir”[5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ona tili –6 –sinf darsligi. Iroda Azimova, Klara Mavlonova Sad'ullo Quronov, Sholir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. –Toshkent, 2022.
2. Ziyodova T. U. Matn yaratish texnologiyasi. Monografiya. – T.:Fan, 2008.- 160 b.
3. Bekniyazova N.I. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish metodikasi. Monografiya. – T., 2012.
4. Yo'ldoshev R. A., Rixsiyeva M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. -T.: Fan va texnologiyalar, 2019.

UO'K 808.5

SAID AHMADNING ASARLARIDA FRAZELOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

M.Kh.Niyazova, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

M.A.Tuxtayeva, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi adabiy muhitda, aynan Said Ahmad ijodida maqollarni qo'llashning o'zigaa xos ahamiyati borasida fikr yuritilgan. Maqolada Said Ahmadning asarlarida qahramonlar nutqida qo'llangan maqollar asos qilib olingan. Ushbu yozuvchining uslubi badiiy asar qahramonlari tilidan aytilgan maqollar orqali tahlil qilinib, qissadan keltirilgan parchalar yordamida ochib berilgan

Kalit so'zlar: ta'sirchanlik, Said Ahmad, maqol, personaj, nutq, xalq og'zaki ijodi.

Аннотация. В данной статье рассматривается особая значимость использования пословиц в современной литературной среде, конкретно в творчестве Саида Ахмеда. Статья основана на пословицах, используемых в речах героев произведений Саида Ахмеда. Стиль этого писателя анализируется через пословицы, произнесенные персонажами художественного произведения, и раскрывается с помощью отрывков из повести.